



**O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN
TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
BOSH DIREKTORINING**

BUYRUG'I

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ijrosini ta'minlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi "Nizolami muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son qarori rahbarlik va ijo uchun qabul qilinsin.

2. "Jismoniy va yuridik shaxslar hamda Texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'rtafigi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha agentlik huzurida apellyatsiya kengashi tashkil etilsin.

3. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida amaliy tajribaga va obro'-e'tiborga ega davlat organining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va xodimlari, shuningdek sohada katta amaliy tajriba yoki ilmiy salohiyatga ega bo'lgan obro'li fuqarolardan iborat Appellyatsiya kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. "Jismoniy va yuridik shaxslar hamda Texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'rtafigi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha apellyatsiya kengashi to'g'risidagi Nizomi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Yuqorida qayd etilgan qarorga ko'ra:

jismoniy va yuridik shaxslar hamda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi o'rtafiga yuzaga keladigan nizolarni sudgacha ko'rib chiqish va xulosa qabul qilish orqali ularni hal qilish choralarini ko'rish;

murojaat etuvchilar, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslardan murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va ma'lumotlarni so'rash olish;

davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan Agentlik apellyatsiya kengashi vakolatlariga taalluqli masalalar bo'yicha ma'lumotnomalar, axborot-tahliliy materiallarni belgilangan tartibda so'rash va bepul olish;

qo'shimcha ekspertiza tayinlash, uni o'tkazish uchun mustaqil ekspert va maslahatchilarni jalg etish;

murakkab masalalarni o'z ichiga olgan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun Agentlik apellyatsiya kengashi a'zolaridan ishchi va ekspert guruhlari tashkil etish;

zarurat bo'lganda, murojaatlarni ko'rib chiqishda qatnashish uchun davlat organlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan mutaxassislar va ekspertlar taklif qilinsin.

6. Xo'jalik va devonxona ishlari sho'basi (Sh.Xudayberganov)ga:

Ushbu buyruq bilan Agentlik va uning tizim tashkilotlariga 2 kunlik muddatda yetkazilsin.

7. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazorat qilish Bosh direktor o'rinnbosari J.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

Bosh direktor



D. Sattarov

*Toshkent sh.,
2022 yil «2» noyabr
59-sin*

2022 yil 2-noyabrdagi
59-son buyrug'iiga
1-ilova

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
huzuridagi appelyatsiya kengashi
TARKIBI**

Nº	F.I.SH	Lavozimi
1.	Xodjikariev Dilshodxon Masudxodjaevich	Texnik reglamentlar va standartlar bo'yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i- rais
2.	Dustmuxamedov Olimxon Dilshod o'g'li	Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limi boshlig'i-rais o'rinnbosari
3.	Agzamov Saidmaxmud To'xtamuradovich	Murojaatlar bilan ishlash sho'ba boshlig'i-kotib
Appelyatsiya kengashi a'zolari		
4.	Dodoev Alisher Rozikovich	Muvofiqlikni baholash bo'yicha texnik siyosatni amalga oshirish boshqarmasi boshlig'i
5.	Muxitdinov Ulug'bek Nasrullaevich	Davlat nazoratini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i
6.	Babashev Qutlimurat Aytmuratovich	Metrologiyani rivojlantirish va o'lchov birliklari yagonaligini ta'minlash boshqarmasi boshlig'i
7.	Meliboev Jamoliddin Abdisalimovich	O'zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi apparati rahbari
8.	Xasanova Sevara Baymuradovna	"O'zMMI" DM yuridik byuro boshlig'i
9.	Sulaymonov Alisher Adaxamovich	Moliyaviy ichki audit va rejalashtirish boshqarmasi boshlig'i

Izoh:

- zarurat bo'lganda, murojaatlarni ko'rib chiqishda qatnashish uchun davlat organlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan mutaxassislar va ekspertlar taklif qilinadi.

- appelyatsiya kengashi tarkibiga kiruvchi mas'ul xodim boshqa lavozimga o'tkanda uning o'rniga yangi tayinlangan xodim kengash tarkibiga kiradi.